

## O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (hikoyalarni o'qitish asosida)

**Shamsiyeva Dilfuza Nizomidinovna,**  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti  
Yuldosheva Saodat Azizovna,  
ilmiy rahbar, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
dilfuzashamsiyeva201@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini yanada rivojlantirish uchun muhim bo'lgan metodlar tadqiq etiladi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani yanada rivojlantirishning dolzarbligi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, darsdan oldingi, dars davomida hamda darsdan so'nggi topshiriqlarning muhimligi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar.** O'qish savodxonligi, fanlararo integratsiya, dars jarayonidagi topshiriqlar, zamonaviy metodlar.

## OKUMA OKURYAZARLIGI BECERILERININ GELISTIRILMESI (hikayeler üzerine eğitim temelli)

**Şemsiyeva Dilfuza Nizomidinovna,**  
Özbek-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü  
Özbek dili ve edebiyatı 2. sınıf yüksek lisans öğrencisi  
Yuldosheva Saodat Azizovna,  
bilimsel danışman, filoloji bilimleri adayı, doçent

**Özet.** Bu makalede edebiyat eğitimi sürecinde öğrencilerde oluşan okuma becerisinin daha da geliştirilmesinde önemli olan yöntemler incelenmektedir. Öğrencilerde bu becerinin daha da geliştirilmesinin önemi hakkında bilgi verilmektedir. Ayrıca ders öncesi, ders sırasında ve ders sonrası ödevlerin önemini ortaya koymaktadır.

**Anahtar kelimeler.** Okuma becerisi, disiplinler arası bütünleşme, sınıf içi görevler, modern yöntemler.

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ (на основе обучения рассказам)

**Шамсиева Дилфуза Низомидиновна,**  
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института  
Юлдошева Саодат Азизовна,  
научный руководитель, кандидат филологических наук, доцент

**Аннотация.** В статье рассматриваются методы, имеющие важное значение для дальнейшего развития читательской грамотности, сформированной у учащихся в процессе литературного образования. Приведена информация об актуальности дальнейшего развития этого навыка у студентов. Также раскрывается важность заданий, выполняемых до, во время и после урока.

**Ключевые слова.** Грамотность чтения, междисциплинарная интеграция, задания в классе, современные методы.

## DEVELOPMENT OF READING LITERACY SKILLS (based on teaching stories)

**Shamsiyeva Dilfuza Nizomidinovna**

*Uzbek-Finnish pedagogical institute master's student*

*Yuldosheva Saodat Azizovna,*

*scientific advisor, candidate of philological sciences, associate professor*

**Abstract.** *This article examines the methods that are important for further developing the reading literacy formed in the student during the process of literary education. Information is provided on the relevance of further developing this skill in students. The importance of pre-lesson, during-lesson, and post-lesson assignments is also revealed.*

**Keywords.** *Reading literacy, interdisciplinary integration, assignments in the lesson process, modern methods.*

Bizga ma'lumki, adabiyot darslarida o'quvchilar epik, lirik, dramatik turdagi asarlarni o'qib o'rganishadi. Yozuvchilar har uchala turdagi asarlarda atrof muhitni, voqealarni, insonlarni chuqur tahlil qiladi, ular ustida mulohaza yuritadi va kechinmalarini qog'ozga tushiradi. Oq qog'ozga tushgan chizmalar qaysidir ma'noda ko'plab kishilarga hayoti davomida uchrayotgan yoki uchrashi mumkin bo'lgan muammo va masalalarni yechishga yordam beradi. O'z-o'zidan adabiyot kishilarga ulkan hayotiy saboqlarni beruvchi manba hisoblanadi. Shu sababli kishi haqiqiy komil shaxs bo'lib ulg'ayishi uchun ham adabiyot deb atalmish ulkan dengiz qariga sho'ng'ishi kerak. Kishilar adabiyot ta'limi orqali ruhan sog'lomlashadi, qalbi poklanadi. Bizga ma'lumki, maktab dargohida o'quvchilarga ko'plab fanlar o'qitiladi. Matematika, fizika, kimyo fanlari o'quvchilarni bilimlarga undasa, musiqa, texnologiya kabi fanlar ularni kasb-hunarga yo'naltiradi. Faqat adabiyot darslarigina shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviyati sog'lomlashuviga, ruhiy kamolotiga, tuyg'ularining takomiliga xizmat qiladi. Ya'ni adabiyot darslarida badiiy asarlar o'quv-didaktik tahlilga tortilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda o'quvchilar ko'rkam asarlarning qahramonlari misolida ularning tutumlari, o'y-xayollari, orzu-istaklari, tuyg'ulari, baxti-yu baxtsizligi, shodlik-u qayg'ulari, xatolari va buning ortidan keladigan iztiroblar tahlili jarayonida Odamni anglab boradilar. O'zgalar hayoti misolida o'zini, tutumlarini, hayotini taftish qiladilar, o'zligini taniydilar. Ayni zamonda, o'quvchilar o'zlarini tarbiyalash jarayonida ishtirok etadi.

O'z-o'zidan shu ma'lum bo'ladi, o'qish savodxonligi ko'nikmasi inson hayoti davomida kerakli bilimlarni olishga yordam berishi bilan birgalikda insonning eng a'lo ziynati bo'lgan odob-axloq ko'nikmalarini olishga ham yordam beradi. Ko'plab metodistlar ta'kidlaganidek, adabiyot ko'ngil tarbiyachisidir. Demak, adabiyot darslarida o'qituvchilar ko'proq o'quvchilarning qalb oynasi tozalanishiga, unda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishlari kerak bo'ladi. Sababi jamiyatga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat nigohi bilan qaraydigan, tinchlik-osoyshtalikni qadrlaydigan, millatparvar yoshlar juda zarurdir. O'qituvchi o'z metodikasi bilan o'quvchilarga adabiyot darslarini samarali o'tishi mumkin. Dars davomida o'quvchilarni ezgu g'oyalarga boshlash ham o'qituvchining zimmasidadir. Imom Buxoriy aytganidek: "Bolaning tabiati rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalar bilan to'ldirish, ota-ona va ustozga bog'liq". Albatta, kelajak yosh avlodniki! Ularni komillik sari ilmi va ziyoli qilib qilib yetkazishda o'qituvchilarning o'rni kattadir. Bunda o'qituvchining yelkasiga ko'proq ma'suliyat yuklatiladi. Sababi o'qituvchi darsni shakllantiruvchi muhim shaxsdir. Agar o'qituvchi adabiyot darslari vaqtlarini o'quvchilardan quruq ma'lumotlarni so'rashga sarflab, asar haqida, asar qahramonlari, voqealarni qay tarzda qabul qilishganlarini, o'quvchiga qay tarzda ta'sir qilganigini so'ramasa, o'quvchi har doim bo'sh ma'lumotlarni yod olishga o'rganadi. Bunday holatda adabiyot ham o'zining asosiy maqsadini amalga oshira olmaydi. Adabiyot darslarida haqiqiy "meni" bor, ruhan va aqlan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash uchun, avvalo, o'qituvchining o'zida shu jihatlarda mujassam bo'lishi kerak. Adabiyot darslarida o'qituvchilar ko'proq o'quvchilarning qalb

oynasi tozalanishiga, unda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishlari kerak bo'ladi.. Dars davomida o'quvchilarni ezgu g'oyalarga boshlash ham o'qituvchining zimmasidadir. Ushbu maqolada adabiy ta'limda hikoya janrini qay tarzda o'qitilsa, o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmasi oshishi haqida mulohaza yuritildi va samarali metodik tavsiyalar berilishiga harakat qilindi. 6-sinf darsligida berilgan Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasini o'qish jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmasini oshirishda quyida tavsiya etilgan metodlardan foydalanilsa, samarali natijalarga erishishda yordam beriladi. M.Fozilova "Adabiyot darsida nasriy badiiy asarni (hikoyani) o'qish jarayonini tashkil etishda keng qamrovli maqsad va vazifalar amalga oshirilishi talab qilinadi. O'qish, asosan, uch bosqichda tashkil qilinadi:

- 1) tayyorgarlik ko'rish;
- 2) o'qish;
- 3) asarni tahlil qilish" [1, 79 b.] – deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, darslikda berilgan har qanday badiiy asarni o'qishda tavsiya etilgan fikrga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Quyida asarni o'qish jarayoni uchga bo'lindi:

- 1) o'qishdan oldingi topshiriqlar;
- 2) o'qish davomidagi topshiriqlar;
- 3) o'qib bo'lingandan so'nggi topshiriqlar.

Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasini ham o'qishga kirishishdan oldin ba'zi topshiriqlar bajarilsa, o'quvchilarga beriladigan keyingi matnga tushunishlari osonroq bo'lar edi. Yangi darslikda "Yaxshilik" hikoyasi berilishidan oldin o'quvchilarni o'qishga tayyorlash uchun, ularni tassavurida urush deb atalmish mudhish holatni jonlantirish uchun ikkinchi jahon urushi davrida yurtimizdagi vaziyat haqida qisman ma'lumot beriladi va o'quvchilarga quyidagi savol bilan fikrlashga undaladi: *"O'ylab ko'ringchi, urush paytida yaqinlari frontga ketgan insonlar uchun eng katta yaxshilik nima bo'lishi mumkin? Eng katta yomonlik-chi?"*

O'quvchilar bu haqida o'ylay boshlaydi va to'plagan o'z fikrlarini boshqalarga ham ulashadi. Natijada sinfda hikoyani o'qishdan oldingi qizg'in suhbat ko'tariladi. Barcha o'quvchilar bir-birlari bergan ma'lumotlarni eshitib o'z dunyoqarashi, tasavvuri hamda bilimni oshirib boradi. Bundan tashqari yangi nashrdagi darslikda o'qish davomida bajariladigan savollar va topshiriqlar berilgan. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

- 1) muallif qanday og'ir voqea haqida hikoya qilib beradi deb o'ylaysiz?
- 2) buvi nima uchun lablari pirpirab gapira olmay qoldi?

3) Mansurning kelinoyisi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakteri haqida nimalarni bilib oldingiz?

4) Bolaning kelinoyisi haqiqatan to'y udumlari sababli yig'ladimi? Mansurning ko'ngli nima uchun buzildi?

5) Nega to'yda ma'yus, g'amgin kuy -qo'shiqlar yangradi? Buvining dam yig'lab, dam kulishiga nima sabab?

6) Mansurning kelinoyisidagi o'zgarishlarni tasvirlab bering. Bu o'zgarishlarga sabab nima edi? Tog'asiga nima bo'lgan bo'lishi mumkin?

- 7) Nima uchun Mansurning buvisiga kelinoyisidan ham qiyin? [1, 34 b.]

Bunday savol va topshiriqlar orqali o'quvchida asar ustida chuqur o'ylash hamda u orqali hayotga teranroq qarab mushohada qilish qobiliyati oshib boradi. Bundan tashqari, darslikning yangi nashrida o'qib bo'lgandan keyingi topshiriqlar ham bor bo'lib, ularni birma-bir ko'rib chiqamiz;

O'qishdan so'nggi topshiriqlar uchga bo'lingan:

### **1. Muhokama qilamiz**

1. Hikoya nima uchun "Yaxshilik" deb nomlangan? Sizningcha, muallif bu hikoya bilan nima demoqchi?

2. "Har safar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro'y bergan bu og'ir voqea emas, dilimda sal ma'yus va iliq hislar uyg'ongan yoz kuni esimga tushadi", – 4deydi Mansur. Nima uchun uning xotirasida bu mudhish voqea emas, balki iliq yoz kuni muhrlanib qolgan?

3. Nega kelinoyisi Mansurdan qattiq xafa bo'ldi? Nega uni kechira olmadi? Sizningcha, kelinoyisi uni kechirishi uchun Mansur nima qilishi mumkin edi?

4. Mansurning kelinoyisi haqidagi tasavvuringiz hikoyani o'qib bo'lgach o'zgardimi? Agar "ha" bo'lsa, qanday o'zgardi?

5. Siz birovga chin dildan yaxshilik qilmoqchi bo'lib, lekin natijasi kutganingizdek chiqmagan holatlarga duch kelganmisiz? Shunda siz qanday yo'l tutgansiz?

**Juft bo'lib ishlaymiz.** Tasavvur qiling, bir necha yildan keyin Mansur va kelinoyisi uchrashishdi. Ular nima haqida gaplashishlari mumkin? Ular o'rtasidagi suhbatni yozing. Sinfdoshlaringizga o'qib bering. Qaysi juftlikning suhbatini eng ishonarli va ta'sirchan chiqdi?

**Loyiha.** Hikoyadan Ikkinchi jahon urushi davri haqida nimalarni bilib oldingiz? Hikoyadagi qaysi o'rinlar sizga urush paytidagi hayotni, insonlarning kechinmalarini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam berdi? Ikkinchi jahon urushi paytidagi hayot haqida ma'lumot to'plang. Buning uchun kitoblarga yoki kinolarga murojaat qilishingiz, u davr haqida yoshi ulug' kishilardan so'rab olishingiz mumkin. To'plagan ma'lumotlaringiz va "Yaxshilik" hikoyasi asosida taqdimot tayyorlang." [1,60 b.]. Ko'rib o'tilgan barcha topshiriqlar o'quvchida o'qish savodxonligi ko'nikmasi oshishiga yordam beradi. Bu topshiriqlar o'qituvchi tomonida tartib bilan bajartirilsa, har bitta topshiriq ustida e'tibor va qunt bilan ishlanilsa, hikoya mazmunini o'quvchi yaxshi tushunadi va bu orqali unda hayotiy ko'nikmalar shakllanib boradi. Yuqoridagi topshiriqlarga quyida berib o'tmoqchi bo'lgan topshiriqlar ham qo'shilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lumki, 6-sinf adabiyot o'quv ish rejasida "Yaxshilik" hikoyasi 3 soatga berilgan. Birinchi soatda hikoya matni bilan o'quvchini tanishtirilsa, keyingi soatlarda uning mazmuniga chuqur yetib borish uchun topshiriqlar bajartiriladi. Har bir shaxsda o'zgacha qobiliyat va iqtidor bo'ladi. Maktab ta'lim tizimida o'quvchilarga xos individual jihatlarni ilg'ab, ularni ma'lum yo'nalishlarga yetaklashda badiiy integratsiya katta rol o'ynaydi. O'quv jarayonida fanlararo bog'liqlikning amalga oshirilishi ta'lim tizimi darajasining yuqorilashishiga katta ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Fanlararo integratsiya haqida D.Lokk quyidagicha fikrni aytadi: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktab ta'lim tizimida o'qitish va tarbiyalashdagi zaruriyati haqida ko'plab pedagog olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan. "Yaxshilik" hikoyasini o'qishdan oldin ham uni tarix faniga bog'lash maqsadida quyidagi savollarni berilishi to'g'ri bo'lar edi:

1. Tarixda qanday urushlar bo'lganini bilasiz?

2. "Yaxshilik" hikoyasida tasvirlangan ikkinchi jahon urushi voqealari haqida yana qanday ma'lumotlarga egasiz?

Yuqoridagi savollar orqali o'quvchilarda tarix faniga oid bilimlarini ham oshirib borilishi mumkin. Shuningdek o'quvchi tasavvurida urush manzaasi ham tiklanadi, natijada hikoyani o'qish davomida asardagi jarayon va voqealarni teranroq anglab boradi. Bundan so'ng o'qituvchi hikoya matnini o'zi o'quvchilarga tanishtiradi. O'qituvchi, albatta, matn bilan darsdan oldin tanishib chiqishi kerak. Hikoya matnini o'qituvchi tomonidan obrazlarga kirib o'qilsa, asar qahramonlarining kechinmalari o'quvchiga yuqishi oson bo'ladi. Bundan tashqari adabiy ta'limda foydalanilgan ro'lli o'yinlar badiiy asarda ilgari surilgan hayotiy-ijtimoiy muammolarni, inson va tabiat hamda odamlar o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida paydo bo'lgan muammo va masalalarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim va ko'nikmasiga suyanagan holda birgalikda qadamma-qadam hal etishida yangi bilimni egallash uchun didaktik o'yinlar muhim sanaladi. Bunda o'yin syujeti biz yashab turgan hayotdan olinadi. "Yaxshilik" hikoyasini ham o'qituvchi tomonidan sahnalashtirilish orqali o'quvchilar hikoya ichidagi mazmunini anglashi oson bo'ladi. O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning qobiliyatiga qarab obrazlarni bo'lib beradi. O'quvchilar o'zlariga berilgan qahramonlarining xatti-harakatlarini qoyilmaqom qilib bajarishi uchun hikoya matniga ko'p bora murojaat qilishadi. O'qituvchi bu orqali o'quvchining hikoyani yanada chuqurroq tushunishiga yordam beradigan yana bir yo'lni topgan bo'ladi. Bundan tashqari

o'quvchi tasavvurini kengaytirish maqsadida "Qayta tuzish", "Hikoyani davom ettirganingda, nima qilar eding?" kabi uslublardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o'quvchini bugungi zamon va davrga hamnafas shaxs sifatida tarbiyalash muhim jarayon hisoblanadi. Shu bois dars davomida o'quvchini darsga ko'proq jalb etish uchun zamonaviy metod va uslublardan foydalanish zaruriy bosqich hisoblanadi. Zero, ertangi kunning qanday bo'lishi, bugungi yoshlarning qanday o'qishi va tarbiyalanishiga bog'liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayeva Z., Jalilov M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. – T. 2022, 224 bet.
2. Fozilova M. Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi (nasriy asarlar misolida) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent. 2022, 182 bet.
3. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX* , 514-516.
4. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX* , 1026-1028.
5. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'қитишнинг самарадорлиги. *фан, талим ва амалиёт интеграцияси* , 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>.